IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB QUVVATLASH VA IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YOLLARI

Musurmonqulova Ozoda
Toshkent kimyo halqaro universtiteti moliya yonalishi 2-bosqich talabasi.

- Kirish

Bugungi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish ,yashirin aylanmaga barham berish va soliq bazasini kengaytirish har qanday rivojlanayotgan davlat uchun fundamentalstrategik vazifa hisoblanadi.o'zbekistonda ham so'ngi yillarda kashbek tizimining joriy etilishi,onlayn nazorat kassa mashinalariningmajburiyligi va chakana savdoni tartibga solish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq ma'muriy bosim va noqonuniy yoki zamonaviy talabga javob bermaydigan chakana savdo shahobchalariningkeskin tugatilishi amaliyotda kichik tadbirkorlar va aholining muayyan qatlami o'rtasida noroziliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa iqtisodiy shaffoflik,barqarorlik va aholi bandligi,daromadi o'rtasida muvaznatni buzulishiga olib kelyapti.

- Muammoning qo'yilishi

Aholining noroziligiga sabob bo'layotgan asosiy omil bu raqamli tizimga o'tishning iqtisodiy mehanizmlari emas,balki ularning keskin va ma'muriy usullar bilan amalga oshirilayotganligidir.kichik va mayda savdogarlar raqamlibugalteriya,bank aylanmalari va soliq hisobotlarigamoslashishi uchun yetarli moliyaviyva huquqiy savodxonlik bazasi shakillanmagan. Shuningdek savdo nuqtalarining yopilishi natijasida ishsiz qolgan aholiga taklif qilinayotgan zamonaviy savdo majmualaridagiijara haqqining yuqoriliigiulaening harid qobilyqi va biznes barqarorligiga salbiy tasir ko'rsatmoqda.yechim- taqiqlash va jazolashda emas,balki rasmiy va raqmli sektorda ishlash xavfsiz va rag'batlantiruvchi tizimga aylantirishda.

- Halqaro tajriba tahlili.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni korsatadiki,yashirin iqtisodiyot darajasi past va xalqi to'q yashaydigan mamlakatlarkichik biznesni ma'muriy jazo bilan emas'iqtisodiy infratuzilma orqali tartibga solgan.

1. Singapur tajribasi: 1970-yillarda tartibsiz ko'cha savdogarlarini(hawkers)shunchaki haydash o'rniga,davlat ularga to'liq infra tuzilmaga(suv,elektr,sanitariya)ga ega bo'lgan "hawker centres"Majmualarini qurib berdi va arzon ijaraasosida joylashtirdi.bu kichik biznesni saqlab qolgan holda yashirin iqtisodiyotni qisqartirdi vatizimni mdaniy brend ga aylantirdi.
2. Janubiy koreya tajribasi: 1990-yillarning oxirida naqd pulsiz to'lovlarni rag'batlantirish uchun istemolchilarga yil yakunidadaromd solig'ini chegirib tashlash(keshbekning davlat shakli) tizimini kiritdi natijada xaridorning o'zi chek talab qiladigan muhit yaratildi va mayda tadbirkorlar tabiiy ravishda shaffoflikga o'tdi.

Tavsiya etilayotgan yechimlar.

O'zbekistondaraqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida ijtimoiy keskinlikni kamaytirish va kichik biznesni himoya qilishnuchun quyidagi chora tadbirlar tizimini joriy taklif etiladi:

I. Amaliy moslashuv davri (amnistiya)

Savdo shahobchalarini to'satdan yopish o'rniga 3oydan 6 oygagacha bo'lgan o'tish davri berilishi, shu vaqt mobaynida ularga jarialar qo'llamasdan,hujjatlarni rasmiylashtirishga ko'maklashish zarur.

II. Moliyaviy tehnik subsidiyalar:

Yashirin sektordan rasmiy sohaga o'tayotgaan tadbirkorlar uchunonlayn nkm aparatlarini sotib olish harajatlarini davlat hisobidan subsidiyalash yoki virinchi yil uchun soliq stavklarini passaytirish(soliq ta'tillari).

III. Ijara subsidiyalari mehanizmi:

Tugatilgan savdo nuqtalari egalariga zamonaviy majmua yoki bozorlardan joy berilayotganda,dastlabki 6 oy davomida ijara to'lovining bir qisminidavlat tomonida qoplab berish tizimini yolga qo'yish.bu ularga yangi joyga mijoz oqiminishakillantirguncha sinib ketmaslik imkonnini beradi.

IV. "soliq maslahat"Hizmati

Soliq organlarining funksiyasininazorat va jazodan ko'mak va ta'limga o'zgartirish.hududlarda mayda savdogarlar uchun bepul raqamli va moliyaviy savodxonlik kurslarini tashkil etish.

✓ Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki raqamli iqtisodiyotga o'tish va yashirin aylanmani qisqartirish-iqtisodiy taraqqiyotning muqarar shartidir. Biroq bu jarayon ma'muriy bosim ostida emsas,balki moslashuvchan iqtisodiy rag'batlar va ijyimoiy himoya mehanizmlari orqaliamalga oshirilishi lozim.qonuniy va raqamli ishlash kichik biznes uchunjozibador va oson bo'lsagina,islohotlar aholi tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanadi va ijtimoiy barqarorlikta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi soliq qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari(*soliq.uz)*
2. National heritage board(nhb)of singapore,"Singapore hawker culture" Report
3. Oecd(2006)"Tax administration in oecd and selected non-oecd countries:South koreacase study"